

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI



O‘ZBEKISTON XOTIN-QIZLAR “OLIMA” UYUSHMASI  
XORAZM VILOYATI BO‘LIMI



**“O‘ZBEKISTONDA INKLYUZIV O‘SISH VA BARQAROR  
RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI: IJTIMOY – IQTISODIY SOHADA  
STRATEGIYANI ISHLAB CHIQISH”**

Xalqaro anjuman

The International conference

**“PROSPECTS FOR INCLUSIVE GROWTH AND SUSTAINABLE  
DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN: DEVELOPMENT OF A  
STRATEGY IN THE SOCIO-ECONOMIC SPHERE”**

Международная конференция

**“ПЕРСПЕКТИВЫ ИНКЛЮЗИВНОГО РОСТА И УСТОЙЧИВОГО  
РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА: РАЗРАБОТКА СТРАТЕГИИ В  
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СФЕРЕ”**

May 03, 2024  
Urgench, Uzbekistan

**“O‘ZBEKISTONDA INKLYUZIV O‘SISH VA BARQAROR RIVOJLANISH  
ISTIQBOLLARI: IJTIMOY – IQTISODIY SOHADA STRATEGIYANI  
ISHLAB CHIQUISH”  
XALQARO KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

**МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ КОНФЕРЕНЦИИ  
“ПЕРСПЕКТИВЫ ИНКЛЮЗИВНОГО РОСТА И УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ  
УЗБЕКИСТАНА: РАЗРАБОТКА СТРАТЕГИИ В СОЦИАЛЬНО-  
ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СФЕРЕ”**

**THE MATERIALS OF THE INTERNATIONAL CONFERENCE  
“PROSPECTS FOR INCLUSIVE GROWTH AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT  
OF UZBEKISTAN: DEVELOPMENT OF A STRATEGY IN THE SOCIO-ECONOMIC  
SPHERE”**

*To‘plam Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filialining 2024-yil 7-maydagi 8-sonli Kengash yigilishida muhokamaga qo‘yilib, tasdiqlandi.*

**Mas’ul muharrir:** *t.f.d., prof. Ruzibayev R.Y.*  
**Tahririyat a‘zolari:** *t.f.d., prof. Murtazayeva R.X.*  
*i.f.n., dots. Iskandarova M.*  
*f.f.n., dots. Jumaniyazova M.X.*  
*t.f.n., dots. Atajanova F.E.*  
*b.f.n., dots. Samandarova B.S.*  
*t.f.n., dots. Tajiyeva Z.B.*  
**Taqrizchilar:** *i.f.d., prof. Ruzmetov B.*  
*p.f.d., prof. Salayeva M.*  
*t.f.n., dots. Matrizayeva G.*

**Tezis va maqolalardagi ma’lumotlar haqqoniyligi, xato va kamchiliklar mualliflar zimmasida.**

**За содержание и достоверность указанной информации в тезисах и статьях ответственность несут авторы.**

<b>OMILLARI.....</b>	100
<b><i>Farmonova Sh.M.</i> TURKIY XALQLAR TA'LIM TIZIMIDA ONA TILINI O'QITISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....</b>	107
<b><i>Фозилов Жамолiddин Камолiddинович, Тоъжиева Феруза Мухтаровна.</i> АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ И СПЕЦИФИКА ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ ПЕДАГОГОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ.....</b>	114
<b><i>Hamroyev Alijon Ruziboyevich.</i> BADIY MATNLARNI TAHLIL QILISH ORQALI O'QUVCHILARNING NUTQIY KOMPETENSIYASINI O'STIRISH.....</b>	120
<b><i>Irisboyev Farkhod Boymirzayevich, Qayumov Diyorbek Suvonqul o'g'li.</i> THE CONCEPT OF DIGITAL ECONOMY AND ITS SIGNIFICANCE.....</b>	123
<b><i>Каримова М.</i> РОЛЬ МАЛОГО БИЗНЕСА В УСТОЙЧИВОМ РАЗВИТИИ РЕГИОНА.....</b>	128
<b><i>Komilova Nilufar Karshiboyevna, Murtazayeva Gulrux Isabek qizi.</i> TOSHKENT SHAHRI AHOLISINING SALOMATLIGI VA EKOLOGIK HOLATI BILAN BOG'LIQ AYRIM TAHLILLAR.....</b>	134
<b><i>Кузиев Б.Н., Муртазин Э.Р.</i> ПРИМЕНЕНИЕ МИРОВЫХ СТАНДАРТОВ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ: ПРИМЕР ПРЕДМЕТА “ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ”.....</b>	140
<b><i>Matyoqubova Dilfuza Olimboyevna.</i> ZAMONAVIY IQTISODIYOTDA BIZNES TUZILMASINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....</b>	145
<b><i>Masharipova Manzura Alimbayevna, Saparova Moxira Alisher qizi, Abdullayeva Yoqutjon Sardarovna.</i> O'ZBEKISTONDA TURIZMNI JADAL RIVOJLANTIRISHNINIG O'ZIGA XOS JIHATLARI.....</b>	149
<b><i>Masharipova Maksuda Beknazarovna.</i> MAMLAKATIMIZDA RAQAMLI INFRATUZILMANI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....</b>	152

7	Shovot tumani	94 072,6	3,1	94 072,6	3,6
8	Yangiariq tumani	55 736,5	1,9	55 736,5	2,1
9	Qo‘shko‘pir tumani	76 965,4	2,5	76 965,4	2,9
10	Bog‘ot tumani	90 909,7	3,1	90 909,7	3,5
11	Honqa tumani	92 950,7	3,1	92 950,7	3,5
12	Yangibozor tumani	46 025,2	1,5	46 025,2	1,8
13	Tuproqqal‘a tumani	38 543,5	1,2	38 543,5	1,5

Ma’lumotlardan ko‘rinadiki, jami hududiy budjet tushumlarida 2023 yilda o‘tgan yilga nisbatan soliq inspeksiyasiga to‘lovlar ulushi 9,1 foizga oshgan. Shahar va tumanlardagi soliq to‘lovchilarni soliq inspeksiyasiga tushumlarining salmog‘i bo‘yicha guruhlarga ajratib tahlil qilganda eng yirik soliq to‘lovchilari guruhi Urganch shahriga to‘g‘ri kelib 2022 yilda 14,6 va 2023 yilda 18,2 foizni tashkil etgan, 3-5 foiz oralig‘ida soliq to‘lovchilar guruhiga Urganch, Xazorasp, Shovot, Bog‘ot va Honqa tumanlari, 2-3 foiz oralig‘ida soliq tushumini tashkil etuvchi hududlarga Xiva shahri, Xiva tumani, Gurlan, Yangiariq, Qo‘shko‘pir tumanlari hamda 2 foizdan kam tushumga ega guruhlarga esa Yangibozor va Tuproqqal‘a tumanlarini kiritish mumkin [2].

Makroiqtisodiy barqarorlikning asosiy belgisi baquvvat to‘lov balansi va to‘la bandlik bilan bir qatorda davlat budjeti kamomadining YaIMga nisbatan 3 foizdan oshib ketmasligi muhim shart sanaladi. Shu sababli, ulkan vazifalarni katta hajmdagi mablag‘ bilan ta‘minlashda, budjet xarajatlarini uning tushumlaridan oshib ketmasligini nazorat qilish zarurati saqlanib qoladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti **Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbekiston -2030” strategiyasini 2023 yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-300-sonli Qarori** 2023-yil 11-sentabr.
2. Xorazm viloyati soliq boshqarmasi ma’lumotlari.
3. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 16-yanvar kuni 2024-yilda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlash bo‘yicha ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan ma’ruzasi.

## **TURKIY XALQLAR TA’LIM TIZIMIDA ONA TILINI O‘QITISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI**

*Farmonova Sh.M.*

**Buxoro davlat universiteti dotsenti**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada turkiy xalqlar ta’lim tizimida ona tilini o‘qitishning konseptual asoslari haqida fikr yuritiladi. Unda baholash, ya’ni pedagogik nazorat ta’lim jarayonida bajaradigan vazifa va funksiyalari tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** ta’lim tizimi, ona tili o‘qitish, baholash nazariyasi asoslari, baholash metodlari, pedagogik nazorat, bilim, ko‘nikma va malaka.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются концептуальные основы преподавания родного языка в системе образования тюркских народов. Анализируются задачи и функции оценивания, то есть педагогического контроля в образовательном процессе.

**Ключевые слова:** система образования, обучение родному языку, основы теории оценивания, методы оценивания, педагогический контроль, знания, умения и компетенции.

**Abstract.** This article discusses the conceptual basis of mother tongue teaching in the educational system of the Turkic peoples. It analyzes the tasks and functions of assessment, that is, pedagogical control in the educational process.

**Key words:** educational system, mother tongue teaching, foundations of assessment theory, assessment methods, pedagogical control, knowledge, skills and competence.

Jahonda til o‘qitish metodikasida XX asrning o‘rtalaridan boshlab kishilar o‘rtasidagi muloqot quroli bo‘lgan tilni o‘qitish va uni baholashga alohida e’tibor berila boshlangan. 70-yillarga kelib tilni o‘rganish va egallash darajasini baholash bilan shug‘ullanuvchi ilmiy-tadqiqot markazlari tashkil etilgan. Buyuk Britaniyada IELTS, Amerika Qo‘shma Shtatlarida TOEFL va Yevropada CEFR kabi test tizimlari ingliz tili va boshqa roman-german tillarini ikkinchi til sifatida egallash darajasini baholashga xizmat qilayotgan bo‘lsa, Amerika Qo‘shma Shtatlarida SAT, Buyuk Britaniyada A-level, Rossiya Federasiyasida YeGE kabi baholash tizimlari ona tilidan nutqiy malakalarni egallash darajasini baholab kelmoqda. Mazkur baholash tizimlarida amaliy ko‘nikmalarni, nutqiy malakalarni tekshirishga urg‘u beriladi.

Dunyo til o‘qitish metodikasida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish, egallangan malakalarni baholash, baholash metodlari va vositalarini belgilash hamda testologiya yuzasidan bir qancha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xususan,

ona tili ta’limida o‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan muhim kompetensiyalar: nutqiy kompetensiya, lingvistik kompetensiyaning nazariy asoslari ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, so‘nggi yillarda amaliy ko‘nikmalarni samarali baholash metodlari borasida ham ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Mamlakatimizda ham keyingi yillarda ona tilini o‘qitishda nutqiy kompetensiyani rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Boshlang‘ich va yuqori sinf o‘quvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirishning nazariy va metodik asoslarini ishlab chiqish borasida bir qancha ilmiy ishlar amalga oshirilmoqda, loyihalar bajarilmoqda. Erishilayotgan natijalar davlat ta’lim standartlari va yangi ishlab chiqilgan milliy o‘quv dasturi mazmuniga singdirilgan. Shu bilan birga, ona tili ta’limida egallangan malakalarni tekshirish, baholash hamda tajribalar xulosasi asosida istiqboldagi ta’lim mazmunini, usullarini, mezonlarini belgilash lozim bo‘ladi. Shuning uchun ham o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini tekshirishning nazariy va metodik asoslarini ishlab chiqish lozim bo‘ladi. Biroq yurtimizda ona tili ta’limida baholash nazariyasi asoslarini ishlab chiqish, baholash metodlarini takomillashtirish ilmiy jamoatchilik nazaridan chetda qolmoqda. Shuning uchun ham ona tili ta’limida ikkilamchi ko‘nikmalar – matnni lingvistik tahlil qila olishni tekshirishga urg‘u berilayotir. Bu esa ona tili ta’limida baholash mazmuni, formati va mezonlari yuzasidan yechimini kutayotgan bir qancha masalalar mavjudligini ko‘rsatadi. Shu ma’noda nutqiy malakalardan biri o‘qib tushunish malakasini baholashning ilmiy - metodik asoslarini ishlab chiqish nihoyatda dolzarb hisoblanadi.

Zamonaviy ta’limning maqsadi faqat bilim berish emas, qobiliyat va fazilatlarni rivojlantirish. Darhaqiqat, kam vaqt sarflab, sifatli natijaga erishishni talab etayotgan hozirgi tezkor zamon ta’limdan faqatgina bilimli emas, balki bilimni hayotda qo‘llay oladigan ijodkor, tashabbuskor, moslashuvchan avlodni tarbiyalashni taqozo etmoqda. Bu esa ta’lim jarayonida bir qancha muhim vazifalarni kun tartibiga chiqarmoqda. Shuning uchun ham ta’lim turlari: maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim, professional ta’lim hamda oliy ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik qaytadan tahliliy o‘rganib chiqilib, ta’lim turlarining ona tili ta’limidan maqsadi aniqlashtirilib olinmoqda.

O‘quv dasturlaridagi bir-birini takrorlaydigan, murakkabligi nuqtayi nazaridan yosh xususiyatiga mos bo‘lmagan mavzular o‘zaro moslashtirilmoqda, ortiqcha yuklamalar optimallashtirilmoqda. Bir so‘z bilan aytganda, fanning ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqib va til o‘zlashtirish qonuniyatlari asosida «Ona tili» fanidan milliy o‘quv dasturi ishlab chiqilmoqda. Shuni ham ta’kidlashimiz kerakki, Milliy o‘quv dasturini ishlab chiqish, darsliklarni yangilash, o‘qitish

sifatini oshirish bilangina ko‘zlangan maqsadga erishib bo‘lmaydi, chunki har qanday ta‘limning sifatini belgilaydigan, ko‘rsatadigan baholash mexanizmi bo‘lishi kerak. Ma‘lumki, jahon pedagogikasida “ta‘lim uchburchagi” degan tushuncha mavjud, bu ta‘lim jarayonining uchta asosiy komponenti hisoblanadi. Bu haqida bir qancha olim o‘z fikrini bildirgan. Jumladan, ingliz olimi Jon Orlando “o‘quv rejasi (DTS, o‘quv dasturi), o‘qitish va baholash ta‘limning uchta asosiy tarkibiy qismi”, – deb ta‘kidlaydi.

Milton Chen esa “Ta‘lim uchburchagi” deb obrazli tarzda “o‘quv rejasi, o‘qitish va baholash” sinfxona stulining uch oyog‘i” deya ta‘kidlaydi. Ya‘ni ta‘lim jarayonini uch oyoqli kursiga o‘xshatib, birortasida xatolik yuz bersa, butun bir ta‘lim qulaydi, degan fikrni ilgari suradi.

Ingliz olimi Dylan Viliam ta‘kidicha, “baholash – o‘qitish va ta‘lim maqsadi o‘rtasidagi ko‘prik”. Ya‘ni baholash o‘qitishning ta‘lim maqsadiga mosligini o‘lchovchi, tekshiruvchi mezon ekanligini uqtiradi.

O‘zbek tilidagi manbalarda esa “baholash bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarning ta‘lim oluvchilarda shakllanganlik darajasini tekshirish, o‘lchash jarayoni” sifatida izohlanadi. Shu bilan birga, baholash ilmiy adabiyotlarimizda umumiy qilib pedagogik nazorat deb nomlanadi. “Pedagogik nazorat – o‘quvchilarga ta‘lim berish, o‘qitish va tarbiyalash natijalarini ilmiy asoslangan nazorat qilish tizimi”.

Umuman, baholash umumiy o‘rta ta‘limda ta‘lim oluvchilarning o‘qitish jarayonida Davlat ta‘lim standartlari va O‘quv dasturlarida belgilangan malaka talablarini egallash darajasini aniqlovchi, tekshiruvchi mexanizm hamda mezon va tartiblardir. Pedagogik nazorat ta‘lim jarayonida bir qancha vazifa va funksiyani bajaradi. Ilmiy adabiyotlarda keltirilishicha, pedagogik nazorat quyidagi vazifalarga ega:

- 1) ta‘limiy vazifa;
- 2) tarbiyaviy vazifa;
- 3) baholash vazifasi;
- 4) diagnostik vazifa;
- 5) bilim olish ishtiyoqini o‘stirish vazifasi;

6) shaxsiyatini rivojlantirish vazifasi. Bulardan kelib chiqib, baholash tizimining ta‘lim jarayonidagi asosiy vazifalarini quyidagicha muayyanlashtirish mumkin:

- o‘zlashtirish darajasini aniqlash;
- bilim olishga qiziqishni rag‘batlantirish;
- o‘quvchining javobidagi xatoni ko‘rsatish;
- bilim, ko‘nikma va malakaning mustahkamlab borilishini ta‘minlash;

- o‘quvchining doimiy ravishda darsga tayyor holda kelishiga erishish;
- o‘quvchining bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘zaro taqqoslash;
- o‘quvchida akademik ko‘nikma – axborot bilan ishlash, axloqiy yetuklik, matematik savodxonlik kabi sifatlarni shakllantirish;
- ta‘lim jarayonida o‘quvchilar orasida o‘zaro do‘stona raqobat muhitini yaratish;
- bilim, ko‘nikma va malaka shakllanishidagi ehtimoliy bo‘shliqlarni aniqlash va ularni bosqichma-bosqich bartaraf etish;
- bilim, ko‘nikma va malaka rivojlanib borishini doimiy ravishda tahlil qilib borish;
- o‘quvchining to‘laqonli bilim olishi uchun qulay pedagogikpsixologik muhitni yaratishga erishish;
- o‘quvchining bilim, ko‘nikma va malakasini baholashda xolislikka erishish;
- o‘quvchining ahamiyatli, amaliy bilim, ko‘nikma va malakasini baholashni ta‘minlashga erishish;
- o‘quvchini baholashda qulay metoddan foydalanishga erishish;
- o‘quvchini bilim, ko‘nikma va malaka saviyasiga ko‘ra saralash;
- o‘quvchini ta‘limning keyingi bosqichiga tayyorlash;
- davlat ta‘lim standartida belgilangan malaka talablarning bajarilishini nazorat qilib borish.

Baholash jarayoni aniq maqsadni ko‘zlab amalga oshiriladi. Ana shu belgilangan maqsadga muvofiq baholash jarayonida tekshiriladigan domen, subdomen, konstrukt va topshiriqlar soni va metodikasi hamda baholash mezonlari belgilab olinadi. Shuning uchun, avvalo, baholashdan qanday maqsad ko‘zlanganini aniqlab olish va shunga ko‘ra baholashni loyihalashtirish lozim. Odatda, baholash jarayonini o‘tkazishda ikki maqsad nazarda tutiladi: 1) o‘quvchilarning BKM va kompetensiyalarini rivojlantirish; 2) o‘quvchilarning BKM va kompetensiyalarini tekshirish, ularni saralash. Shuning uchun ham baholash maqsadiga muvofiq foydalaniladigan topshiriqlar mazmuni, tuzilishi va metodikasi hamda mavzular qamroviga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. O‘quvchilarning BKM va kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadida amalga oshiriladigan baholash jarayonida muayyan kichik mavzular yuzasidan o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, va malaka (BKM) larini shakllantirish va rivojlantirishga yo‘naltirilgan topshiriqlardan foydalaniladi. O‘quvchilarning BKM va kompetensiyalarini tekshirish, ularni saralash maqsadida amalga oshiriladigan baholashda yirik bo‘limlar yoki o‘quv yili davomida egallangan BKM va kompetensiyalarini tekshirishga, ularni saralashga qaratilgan topshiriqlardan foydalaniladi.



Jahon tajribasida baholash nazariyasi mustaqil fan sifatida ajralib chiqqan, ta’lim jarayonida baholashning bir qancha turidan foydalaniladi. Xususan, pedagogik o‘lchovga oid tadqiqotlarda baholashning formativ, diagnostik, dinamik, sinoptik, ipsativ, kompleks, normaga asoslangan, mezonlarga asoslangan, summativ turlari ajratilgan.

Summativ baholash o‘quvchilarning muayyan fan yoki fanlar yuzasidan o‘quv choraklari davomida, yoki muayyan o‘quv yili davomida yoki butun umumiy o‘rta ta’lim davomida o‘zlashtirgan, egallagan BKM va kompetensiyalarini tekshirish, baholash jarayoni. Summativ baholash maqsadidan kelib chiqib o‘quvchining ta’lim olishiga turtki vazifasini o‘taydi. O‘quv choragi va o‘quv yili oxirida o‘tkaziladigan imtihonlar mazmuni va metodikasi ta’lim jarayoniga muayyan hajmda ta’sir o‘tkazsa, umumiy o‘rta ta’lim bitiruvchilaridan olinadigan yakuniy davlat attestasiyasi yoki katta motivasiya kuchiga ega oliy ta’limga kirish testlari mazmuni va metodikasi butun umumiy o‘rta ta’limning maqsad va metodikasiga aylanib ketishi mumkin. Ta’lim sifatini baholash bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar hisobotlaridan ma’lumki, agar juda katta ta’sir kuchiga ega sinovlarning mazmuni va test topshiriqlari metodikasi ta’lim berishning bosh maqsadi bilan hamohang bo‘lmasa, o‘rta ta’limda o‘qitish va summativ baholash bir-biridan uzilib qoladi. Natijada jamiyatda “imtihon uchun o‘rgatish”ga mo‘ljallangan muqobil ta’lim paydo bo‘ladi. Bu esa jamiyatning ijtimoiy, ma’naviy va huquqiy hayoti, xususan, ta’lim jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu o‘rinda shuni ham ta’kidlash kerakki, Garvardda o‘tkazilgan tadqiqotlardan ma’lum bo‘ldiki, o‘quvchi va talabani majburiy standartlashtirilgan testlardan o‘tish uchun tayyorlash ularni o‘qitishning bosh maqsadiga aylanib qoladi. Ya’ni ta’limning bosh maqsadi o‘quvchini faqat “test uchun o‘qitish”, test spesifikasiyasida belgilangan talablarni bajartirish, sinovdan o‘tishi uchun tayyorlash bo‘lib qoladi. Bu o‘qituvchi va ta’lim oluvchida stressli holatlarning keskin oshib ketishiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun ham summativ baholashni tashkil etishda, uning mazmuni, formati va topshiriqlari metodikasini belgilashda ilmiy asoslangan dalillarga tayanish kerak. Saralash, xulosalash, tanlov maqsadida amalga oshiriladigan summativ baholashning ishonchliligi va validligi, shaffofligi va adolatliligiga bir qancha omil ta’sir etadi, chunki bunday imtihonlar ko‘plab omillarga bog‘liq bo‘lgan murakkab jarayondir. Bizningcha, summativ baholash jarayonining validligi, shaffofligi, ishonchliligiga ta’sir etuvchi omillar quyidagilar: ichki omillar:

- baholash mazmuni o‘rta ta’lim davlat ta’lim standartlarida belgilangan talablarga mos bo‘lishi bilan bog‘liq omillar;
- baholashni loyihalashtirish jarayoniga amal qilmaslik bilan bog‘liq omillar;

- topshiriqlarni ishlab chiqish jarayoni bilan bog‘liq omillar;
- imtihon o‘tkazish jarayoni bilan bog‘liq omillar;
- baholash natijalarini hisoblash jarayoni bilan bog‘liq omillar; Tashqi omillar:
  - baholash katta auditoriyada ko‘plab bitiruvchi, talabgordan olinishi;
  - baholash tanlov maqsadida amalga oshirilayotgani uchun talabning nihoyatda yuqoriligi;
  - qabul kvotalarining kam ekanligi kabi. Pedagogik o‘lchovga oid tadqiqotlardan ma‘lumki, har qanday baholash o‘lchovini ishlab chiqishdan oldin uni loyihalashtirish kerak bo‘ladi. Loyihalashtirishda baholash maqsadi, mazmuni, metodlari, vositalari va mezonlari belgilab olinishi zarur, zero biror o‘rinda xatolik ketsa, baholash ta‘limga salbiy ta‘sir qilishi mumkin. Ma‘lumki, “baholash metodi – o‘quvchi yoki talabaning egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini, shaxsiy sifati darajalarini belgilashdan iborat bo‘lgan pedagogik jarayon”. Bu jarayonni to‘g‘ri amalga oshirish uchun, avvalo, baholashni loyihalashtirib olish lozim.

Psixolingvistikaga oid ilmiy tadqiqotlardan ma‘lumki, insonlar o‘rtasidagi muloqot jarayoni to‘rt xil kognitiv malaka asosida amalga oshadi, mazkur nutqiy malakalar o‘zaro bog‘liqlikda rivojlanadi. Bu ko‘nimalar og‘zaki va yozma nutq bilan bog‘liq. So‘zlash va tinglab tushunish malakalari og‘zaki nutq bilan bog‘liq bo‘lsa, yozish va o‘qib tushunish yozma nutq bilan bog‘liq tarzda amalga oshadi. Shuningdek, mazkur ko‘nikmalar muloqot jarayonida mazmuni ifodalashi yoki idrok qilishi nuqtai nazaridan ham bir-biridan farqlanadi. Umuman, bu jarayonlar psixolingvistikada kodlash (fikrni signallar: tovush yoki grafemalar bilan ifodalash) va dekodlash (grafemalar yoki tovush bilan ifodalangan ma‘lumotlarni idrok qilish) jarayoni deb yuritiladi. Bu tushunchalar psixolingvistik tadqiqotlarda o‘rganilgan, ilmiy asoslangan.

Dekodlash jarayoni psixologiyada nutqiy persepsiya deb ataladi. Persepsiya – bu insonning borliqni idrok qilishi jarayoni. Nutqiy persepsiya esa bu verbal va vizual birliklar yordamida borliqdagi hodisalarni idrok qilish, talqin qilish va tushunish jarayonidir. Idrok qilish tinglab tushunish yoki o‘qib tushunish tarzida amalga oshadi. Tinglab tushunish og‘zaki nutqda ifodalangan ma‘lumotlarni anglash, fahmlash, idrok qilish demakdir. O‘qib tushunish esa grafemalarda, tasvirlarda, chizmalarda, rasmlarda ifodalangan ma‘lumotlarni anglash, idrok qilish, fahmlashdir. O‘qib tushunish jarayonida matndagi turli chiziqlar majmuini qabul qilamiz, ular grafema deb ataladi. U vizual kirish leksikonidagi mavjud so‘zlar bilan solishtiriladi va so‘z chizmadan iborat tashqi shaklidan mazmundan iborat mohiyatiga aylanadi hamda idrok qilinadi. Ya‘ni, mazkur tasvirga bog‘langan ma‘no faollashadi. Bir so‘z bilan aytganda, yozma matndagi so‘zni

turli belgilar tizimi – grafemalar yig‘indisi sifatida qabul qilamiz va uni mazmun parchasi sifatida idrok qila boshlaymiz. Shuni ham ta’kidlashimiz kerakki, “matnni o‘qish, uni tushunish jarayoni pedagogik (biror shaxs tomonidan takrorlab o‘rgatish), psixologik (diqqatni yiqqan holda o‘rganilayotgan narsaga qarash), jismoniy (boshqa harakatlarni to‘xtatgan holda ko‘zni faqat belgi, bo‘g‘in yoki so‘zga qaratish) va fiziologik (o‘rgatilayotgan harf yo so‘zni takrorlay olish, o‘qiy olish qobiliyatining mavjud yoki mavjud emasligi) jarayon hisoblanadi”. Shuning uchun ham o‘qib tushunish murakkab nutqiy psixofiziologik faoliyat. Bu jarayon haqida ko‘plab xorij va o‘zbek olimlari ilmiy ishlar qilgan, tajribalar o‘tkazgan va ularning tahlillari asosida natijalarni taqdim qilgan. Fiziologlarning ma’lumotlariga ko‘ra, “o‘qib tushunish bosh miyaning ensa qismidagi neyronlar ta’sirlanishi asosida amalga oshadi, ya’ni ko‘z soqqasining harakatlanishi, ko‘rish va sezgi qobiliyatlari bosh miya qismidagi o‘rta miyaning tepasida joylashgan oraliq miya funksiyasi orqali boshqariladi.

O‘rganishlarimiz natijasida, bizningcha, matnni o‘qib tushunish, uni idrok qilish, o‘zlashtirish quyidagi bosqichlardan iborat.

1-bosqich: grafik tasvirni tanish va so‘zni o‘qish;

2-bosqich: so‘zning matndagi ma’nolarini angash;

3-bosqich: rasmlarda, chizmalarda, diagrammalarda ifodalangan ma’lumotni tushunish va so‘zlarning o‘zaro mazmuniy bog‘lanishini, birliklarning matndagi vazifasini idrok etish;

4-bosqich: matnning qismlarini anglash va ular o‘rtasidagi mazmuniy bog‘liqliklarni idrok qilish;

5-bosqich: matndagi umumiy va yashirin ma’nolarni tushunish, matn maqsadini anglash, matndagi ma’lumotdan real hayotiy vaziyatda foydalana olish;

6-bosqich: matnga aynan shu mavzuda yozilgan boshqa matnlar bilan qiyoslab baho bera olish.

Shuning uchun pedagogik o‘lchovlarga doir tadqiqotlarda o‘qib tushunish malakasini baholashda natijalarga salbiy ta’sir etuvchi omillar quyidagicha guruhlashtiriladi:

-matn bilan bog‘liq bo‘lgan omillar;

-o‘qib tushunuvchi bilan bog‘liq omillar;

-topshiriq bilan bog‘liq omillar. Matn bilan bog‘liq bo‘lgan omillar – matn tilining “og‘ir”ligi, berilish uslubining murakkabligi, matn turlari va unda mavzulari bilan bog‘liq bo‘lgan omillar. O‘qib tushunuvchi bilan bog‘liq omillar – o‘quvchining yoshi, fiziologik va psixologik holati, tajribasi, kognitiv darajasi bilan bog‘liq omillar. Topshiriq bilan bog‘liq omillar – topshiriqlar hajmi, miqdori, mazmunining aniq va lo‘nda ifodalanganligi bilan bog‘liq omillar. Shuning uchun

ham o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholash jarayonida o‘qib tushunish malakasini baholash konstruktlarini belgilashga, baholash jarayonida foydalaniladigan matnlarni tanlashga, u asosida topshiriqlar tuzishda uning mazmunini belgilashga alohida e‘tibor bilan yondashish talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda, har bir o‘quvchi fikrini og‘zaki yoki yozma ifodalashi, o‘zgalar fikrini, matndagi axborotlarni idrok eta olishi psixofiziologik jarayon, baholashda foydalaniladigan savol va topshiriqlar uning nutqiy malaka va tafakkurini rivojlantirishga ruhiy jihatdan ham, jismoniy jihatdan ham mos bo‘lishi, ularda mustaqil munosabatini bayon etishga, hayotni va o‘zgalarni anglash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak.

## АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ И СПЕЦИФИКА ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ ПЕДАГОГОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

*Фозилов Жамолiddин Камолiddинович*

**Т.Н. НИИ имени Кары-Ниязи, исследователь (DSc)**

*Тожиева Феруза Мухтаровна*

**к.п.н. и.о. доцента ТГПУ им. Низами**

*Рахмонова Садокат Саминжон кизи*

**Аннотация.** В статье ведётся рассуждение по трём, так называемым «опосредственным» формам повышения квалификации, из десяти официально установленных форм повышения квалификации педагогических кадров. Поясняется удобность и преимущественные стороны опосредственных форм повышения квалификации.

**Ключевые слова:** опосредственное повышение квалификации, творческий отпуск, открытые учебные занятия, удобность, побуждение на активность, малозатратность, мотивация, вдохновенность, легитимность, творческая среда, творческий потенциал.

**Annotation.** The article shall reflect the three so-called mediately forms of qualification improvement among ten officially available for improvement of qualification of pedagogical cadres. The comfort and advantage of mediately forms of qualification improvement shall be explained.

**Key words:** mediate qualification improvement, creative vacation, free lessons, comfort, call for activity, cost-saving, motivation, inspiration, legitimacy, creative surrounding, creative potential.